

TILSHUNOSLIKDA TRANSPORT LOGISTIKASI ATAMASIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Xudayberdiyeva Muxlisa Sa'dulla qizi

O'zDJTU magistratura 1-kurs talabasi

E-mail: khudayberdiyev1996@inbox.ru

Annotatsiya: Logistika atamasi jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan iqtisodiyotda katta o'zgarishlarga sabab bo'lei. Biroq ushbu atamaning asl ma'nosi ko'pchilik hatto olimlarning ham turli munozaralariga sabab bo'ldi. Mazkur maqolada transport logistikasi atamasiga oid tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Logistika, atama, transport logistikasi, Yevropa Assotsiatsiyasi

Abstract: As soon as the term logistics entered the life of the society, it caused great changes in the economy. However, the original meaning of this term has been the cause of many discussions, even among scientists. This article analyzes research on the term transport logistics.

Key words: Logistics, term, transport logistics, European Association

O'zbekiston, Xitoyda bo'lgani kabi, transport iqtisodiyotning eng yirik asosiy tarmoqlaridan biri, shuningdek, ishlab chiqarish va tijorat infratuzilmasining muhim qismiga aylanmoqda. Har bir mintaqada ishlab chiqarishni joylashtirishda logistika omili juda muhimdir. Shuning uchun har qanday kompaniyaning logistika vazifalarini o'z vaqtida bajarish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Tovar hujjatlarining va umuman butun ish oqimi jarayonining aniqligi va tezligi transport xizmatining o'z vaqtida bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda transport logistikasi xalqaro iqtisodiy integratsiyada katta rol o'ynaydi va dunyo bozorining katta ta'siri transport logistikasi tilini chuqur o'rganishga muhtoj bo'lgan tomonlar o'rtaсидаги

o‘zaro munosabatlar shartlarini belgilaydi. Tegishli hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish nafaqat transport korxonalari uchun balki, transport xizmatlaridan foydalanadigan korxonalar uchun ham muhimdir.

Logistika tushunchasi o‘zinining qadimiy tarixiga ega. Qadimgi greklar logistika deb hisob-kitoblarni amalga oshirish san’atini tushunishgan. Maxsus davlat nazoratchilarini esa logistlar deb atashgan. Qadimgi Rimda esa logistika deb mahsulotlar taqsimoti tushunilar edi. Keyinchalik logistika atamasi harbiy qo‘sishlarning joylashishi va harakatlanish amaliyotini tasniflashda ishlatila boshladи. Eramizning IX—X asrlarida yashagan Vizantiya imperatori Leon VI. o‘zining harbiy ish bo‘yicha kitobida “logistika” atamasini “front orti, qo‘sishlarning ta’minoti” ma’nosida ishlatadi [1]. O‘zbekiston tarixiga kelsak, logistika masalalariga buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur armiyasida katta ahamiyat berilgan. Amir Temur armiyasi tashkiliy va harbiy tuzilishda, shuningdek, jang olib borish usullari borasida eng katta va qudratli armiya edi. Harbiy logistikaning rivojlanishida yangi bosqich ikkinchi jahon urushi davomida vujudga keldi, bunda logistik qarashlar janglarni tayyorlash va rejalashtirishda keng qo‘llanila boshladи [2]. Logistika atamasi barcha Yevropa tillarida keltirilishiga qaramay, ulardan turlicha ma’nolarda foydalanadilar. Bu atama bo‘yicha olimlar, faylasuflarning qarashlari bir-biridan farq qiladi. Fikrimning isboti o‘laroq, 1992-yil Stokgolmda Logistika Yevropa assotsiatsiyasi Xalqaro simpoziumida logistika atamasining umumqabul qilingan ta’rifning hali yo‘qligi ta’kidlangan [3]. Shu bois faqat logistikaga oid fikrlardan ayrimlarini ko‘rib chiqishni lozim topdim.

1-jadval

	Logistika bu
Logistik menejmentning kengashida	iste’molchi talablarini ko‘proq qanoatlantirish maqsadlarida xomashyo, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulotlar va tegishli axborotlarni jamlash, saqlash, ishlab chiqarilgan joydan iste’mol joyiga tashish va uzatishning texnologik va tejamkor samarali operatsiyalarini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonidir

Goopere & Lybrand (kompaniya)	ishlab chiqaruvchidan xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va tayyor mahsulotlarni joylashtirish va ishlab chiqaruvchi firma orqali iste'molchilarga harakatlanishini boshqarishdir
prof. A.A.Smexov (Rossiya)	yangi ilmiy yo'nalish, ishlab chiqarish va energetika tizimlaridagi moddiy va axborot oqimlarining harakatlanishida rejalashtirish, boshqarish va kuzatish haqidagi ta'lim
prof. G.Pavellek (Germaniya)	korxonaga kelib tushuvchi, u yerda ishlab beruvchi va bu korxonadan chiqib ketuvchi moddiy oqim va tegishli axborot oqimini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishdir
A.N.Rodnikov	moddiy va axborot oqimlarini birlamchi manbadan va yakuniy iste'molchigacha masofa va vaqttagi harakatini rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish va tartibga solish haqidagi fan
A.T.Semenov	yirik ishlab chiqarish - xo'jalik (sohaviy, mintaqaviy, xalq xo'jaligi) tashkilotlari, yirik ko'lamli tadbirkorlik va tijorat faoliyatidagi belgilangan ilg'or tafakkur, eng samarali metodologiyadir
N.V.Afanaseva	moddiy, tovar va axborot oqimlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish tizimi yo'li bilan jamiyat ishlab chiqarish kuchlari o'zaro samarali hamkorligining ilmiy qurolidir

1-jadval. Logistika tushunchasi haqidagi qarashlar.

Keltirilgan fikrlardagi tafovutlarga qaramay shuni aytish mumkinki, logistikaning sanab o'tilgan tushunchalari yagona umumiyligi ratsionallik va umumiyligi maqsadga ega. Shuni ta'kidlash joizki, XX asrning 70-yillari boshida turli mamlakatlar iqtisodiyotida logistik qarashlar keng qo'llanila boshladi. Asta-sekin logistika va logistik boshqaruv tushunchalari turli shakllarga ega bo'ldi va ishlab chiqarish hamda tovar almashinuvining turli xil tarmoqlariga kirib bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda logistikaga moddiy oqimlarni boshqarish sifatida qaraladi. O'z davrida Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak Yo'li orqali bo'ladigan turli tovar almashinuvini hamda savdo-sotiq jarayonlarida logistika elementlarini yaqqol ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Umarova D.M., Bo'ronova M.A., Zuxurova N.A. Logistika. O'quv qo'llanma. – T.: TATU, 2007. 83-b.]
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: 1992.]
3. Dadaboyev Q.A., Logistika. O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2007. – 124 b
4. Теселкина П.А. ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ. Дипломная работа. - 2017. -68 с.

Internet saytlari.

1. www.ziyonet.uz
2. <https://fayllar.org>

